

ABDULLA QAHHORNING “SAROB” ROMANIDA INSON RUHIYATI VA DAVR
MAFKURASI: SHAXS VA JAMIYAT TO‘QNASHUVI

Axtamova Nilufar A’zam qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 3 - bosqich talabasi.

+998507571017

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20153116>

Annotatsiya. Ushbu maqola Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida inson ruhiyatining murakkab tasvirini tahlil qiladi. Unda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi chuqur to‘qnashuv, shuningdek, davr mafkurasining inson ongiga ta’siri asarning markaziy masalasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot qahramonlarning tashqi ijtimoiy bosimlar, mafkuraviy qarashlar va ichki erkinlikka intilish jarayonidagi kurashini o‘rganadi. Maqola inson ma’naviy izlanishlari, ularning mafkuraviy muhit bilan o‘zaro aloqasi va ijtimoiy oqibatlarini yoritishni maqsad qiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qahhor, “Sarob” romani, inson ruhiyati, davr mafkurasini, shaxs va jamiyat, ichki erkinlik, psixologik tahlil, o‘zbek adabiyoti.

Abstract. This article analyzes the complex portrayal of human psychology in Abdulla Qahhor’s novel “Sarob”. It examines the profound conflict between the individual and society, along with the influence of the ideology of the period as a central theme of the work. The study explores how characters struggle with external social pressures, ideological constraints, and the pursuit of inner freedom. The article aims to highlight the author’s depiction of human spiritual quests within the framework of the ideological environment and their societal implications.

Keywords: Abdulla Qahhor, “Sarob” novel, human psychology, ideology of the period, individual and society, inner freedom, psychological analysis, literary criticism, Uzbek literature.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу сложного изображения человеческой психологии в романе Абдулла Каххора “Сароб”. Особое внимание уделяется не только конфликту между личностью и обществом, но и влиянию идеологии эпохи на сознание человека. Исследование рассматривает, как персонажи справляются с внешним давлением, идеологическими установками и внутренней борьбой за обретение свободы. В конечном итоге статья направлена на раскрытие духовных поисков личности в условиях господствующей идеологии и их социальных последствий.

Ключевые слова: Абдулла Каххор, роман “Сароб”, психология человека, идеология эпохи, личность и общество, внутренняя свобода, психологический анализ, литературная критика, узбекская литература.

Kirish: Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotining XX asrda shakllangan eng yorqin namoyandalardan biri bo‘lib, o‘zining sermahsul ijodi bilan milliy proza rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. U nafaqat hikoyanavislikning ustasi, balki o‘zbek nasrining asoschilaridan biri sifatida tan olingan, hatto “o‘zbek Chexovi” deya e’tirof etiladi. Qahhor ijodi inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini, hayot ziddiyatlarini va oddiy insonlar taqdirini mahorat bilan tasvirlashi bilan ajralib turadi, uning asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan holda milliy va umumbashariy qadriyatlarni targ‘ib etadi.

Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari hamda xatti-harakatlari haqida atroflicha mulohaza yuritiladi. Adib ushbu asarda o‘zining badiiy tasvir uslubini yanada boyitib, makon va zamon manzaralari, ichki monologlar, ruhiy kechinmalar hamda xotira lavhalari orqali Saidiy kabi qahramonning psixologik holatini chuqurroq anglash imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, romanda davr mafkurasi va uning inson ongiga ta‘siri ham muhim o‘rin tutadi.

Adib romanni 23 yoshida, ya‘ni 1930-yilda yoza boshlagan va 1934-yilda yakunlagan.

Asarda 1930-yillarning ilk yarmida sodir bo‘lgan voqealar aks ettirilib, u davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy muhiti hamda kommunistik mafkura ta‘siri badiiy ifodasini topgan.

Ayrim tadqiqotchilar ushbu asarni psixologik roman sifatida baholaydilar, chunki unda inson ruhiyati bilan bir qatorda mafkuraviy bosim ostidagi ichki ziddiyatlar ham chuqur ochib beriladi.

Asarda markaziy qahramon Rahimjon Saidiy hamda uning safdoshlari orqali sovet hokimiyatiga qarshi olib borilgan yashirin kurashlar tasvirlangan. Ularning harakati va qarashlari davr mafkurasi bilan keskin to‘qnash keladi hamda bu qarama-qarshilik qahramonlar ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Asar yakunida “Saidiylar tanlagan yo‘l fojeali yo‘ldir, ularning orzu-intilishlari esa hech qachon amalga oshmaydigan xayol va sarobdan iborat” degan badiiy xulosa ilgari suriladi.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqot Abdulla Qahhorning “Sarob” romani asosida inson ruhiyati va davr mafkurasining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda psixologik tahlil metodi orqali qahramonlarning ichki kechinmalari o‘rganildi. Tarixiy-qiyosiy yondashuv yordamida asar yaratilgan davr mafkurasi va ijtimoiy muhitning ta‘siri tahlil qilindi.

Shuningdek, adabiy-tahliliy metod asosida asarning badiiy xususiyatlari va muallif g‘oyasi yoritildi.

NATIJALAR VA TAHLIL. Ruhiiy saroblar: “Sarob” romanida fojeaviy taqdir va jamiyat ta‘siri: Romandagi inson ruhiyatining tahlili, shaxsiy dramalar va ichki ziddiyatlar masalasi adabiyotshunoslikda alohida o‘rin tutadi. Xususan, Saidiy obrazi, uning shaxsiy ambitsiyalari, o‘z manfaatini ko‘zlovchi tabiati va izchilliksizligi tadqiqotchilar tomonidan keng muhokama qilingan. Asar asosiy personajlar bo‘lgan Saidiy va Munisxonlarning talabalik chog‘larida bir-birlariga ko‘ngil qo‘yishi bilan boshlanadi.

Ammo ularning muhabbati uzoqqa cho‘zilmay, Munisxon o‘z muhabbatidan osongina voz kechib, o‘ziga nomunosib bir yigitga turmushga chiqishi va asl ismi Rahimjon bo‘lgan Saidiy ham Soraxon ismli bir Murodxo‘ja ismli domlaning qiziga uning boyligi va mansabi uchun uylanishi bilan davom etadi. Shuning bilan Saidiyning ham Munisxonning ham hayoti o‘xshamaydi.

Munisxon o‘z joniga qasd qiladi. Saidiy esa asar oxirida qorga belanib, hushidan ketishi bilan yakunlanadi. Saidiyning bu darajaga borishiga uning bamisli qo‘g‘irchoq bo‘lishi, ya‘ni zamon har xil kuyga solib, turli xil chalkash yo‘lga olib borishida edi.

Asarda asosiy obraz Saidiy bilan birgalikda Murodxo‘ja domla, shaharda maorif bo‘lim mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, go‘zal va baxtsiz qiz Munisxon timsollari ham yaratilgan, sovuqqon kelin Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi obrazlar ochib berilgan. Yozuvchi har bir qahramoniga alohida ta‘rif, alohida xarakter bilan yondashadi. Hattoki ularni ichki psixologiyasigacha ochib beradi.

Saidiyning Munisxonga bo'lgan muhabbatining o'z manfaatiga xizmat qilishi, keyinchalik esa shuhrat qozonish maqsadida Murodxo'ja domlaning jismonan va ruhan kasal qizi Soraxonga uylanishi uning xarakteridagi egoistik va opportunistik xususiyatlarni yaqqol namoyon etadi.

Shaxs va jamiyat to'qnashuvi masalasi "Sarob" romanining markaziy mavzularidan biri bo'lib, bu jihat ham adabiyotshunoslikda keng yoritilgan. Xususan, Saidiyning jamiyatdagi o'z o'rnini topish, shuhrat qozonish intilishlari bilan birga, uning ma'naviy tanazzuli va ichki ziddiyatlari orqali muallif davrning ijtimoiy muammolarini badiiy umumlashtirgan. Bosh qahramon xarakteriga xos xudbinlik, individualizm, shaxs va insoniyat uchun xatarli illat, jiddiy ma'naviy-axloqiy muammo sifatida qadim-qadimlardan beri so'z ustalari e'tiborini tortib keladi.

Buzuq muhit alohida shaxsdagi ijobiy xislatlarni qanday yemirishi ham adabiyotning abadiy mavzularidan biridir. Bu fikr Aristotel ta'kidlaganidek, inson ijtimoiy mavjudot bo'lib, u yashayotgan muhit ta'sirida shakllanishi bilan hamohangdir [5;79]. Xuddi shuningdek, Abu Nasr Forobiy ham fozil jamiyat insonni kamolga yetkazishini, nosog'lom muhit esa uni tanazzulga olib borishini uqtiradi [6;56]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, "Sarob" ning bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolayotgan muhim jihatlardan biri — asarning ichkilikka qarshi yo'naltirilgan g'oyasidir. Saidiyning ma'naviy inqirozi boshidan oxirigacha aynan ichkilikbozlik bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Romanda shunday bir nojo'ya ish yo'qki, u ichkilik ustida rejalashtirilmagan bo'lsin. Saidiy ulfatlari oldida o'zini ko'rsatish uchun ba'zan gazaksiz ham ichadi. Ammo u qancha ko'p ichsa, iste'dodi shuncha pasayib, sog'ligi tobora yomonlashib boradi.

Buni quyidagi jumlar orqali sezishimiz mumkin: *"Saidiy fakultetdan tamoman ketishga qaror berganidan so'ng ozini muallaq seza boshladi: minba'd muallimlik qilmaydi, yozuvchilikda esa hali noni butun bo'larli darajaga yetgani yo'q. Shu sababli, yozuvchi bolish uchun urinishga uni ham xohish, ham majburiyat undar edi. Biroq tirishish uning uchun ilgarigi ma'nosini yo'qotdi. Endi kuni-tuni kitob o'qish, o'rganish kerak emas, faqat ulug'larning ko'ziga tez-tez ko'rinib tursa kifoya. Buni esa ko'proq shisha osonlashtiradi. O'z o'rnida bo'shatilgan ikki juft shisha unga yigirma juft kitobdan ortiqroq foyda yetkazar edi. Bu doirada shisha unga ko'p narsa va'da qila boshladi. Bir o'tirishda Abbasxon unga "sen" deb gapirdi. Podsho "sen" degan kishini butun mam-lakat "siz" deydi!*" [1;114]. Nihoyat, uning tutqanoq kasaliga chalinib, og'zidan ko'pik kelishi va Murodxo'janing uni ruhiy kasallar shifoxonasiga joylashtirish haqida o'ylashi — bularning barchasi ayanchli ichkilikbozlik oqibatlari ekanini asarda bosqichma-bosqich ochib beriladi.

Ichki erkinlik muammosi "Sarob" romanining eng chuqur falsafiy qatlamlaridan biri bo'lib, bu mavzu ham adabiyotshunoslar diqqat markazida bo'lgan. Qahramonlarning ozodlikka intilishi, ularning shaxsiy tanlovlari va bu tanlovlarning oqibatlari romanning asosiy g'oyalardan biridir. Saidiyning o'z ambitsiyalari ortidan quvishi, Munisxonning taqdirga tan berishi orqali muallif insonning ichki erkinligi, uning chegaralari va jamiyat tomonidan qo'yilgan cheklolar haqida chuqur mushohada yuritadi. Munisxon va Salimxon o'rtasidagi suhbat asarda qahramonlar ruhiy olamini ochib beruvchi muhim epizodlardan biridir. Unda Salimxon Munisxonga o'z qarashlarini singdirishga urinib, nikoh va muhabbat masalasiga nisbatan o'zining pragmatik va mafkuraviy yondashuvini asoslashga harakat qiladi. U muhabbat asosidagi nikoh ham, majburiyat asosidagi nikoh ham aslida bir xil sinovlar va ko'nikish jarayonlarini talab qilishini ta'kidlaydi.

Uning fikricha, inson hayotida “muhabbat”dan ko‘ra “majburiyat” muhimroq bo‘lib, hatto nikohda erkak va ayol o‘rtasidagi munosabat ham tabiat qonunlari va nasl masalasi bilan bog‘liq holda izohlanadi. Biroq Munisxon bu qarashlarga ichki norozilik va ruhiy qarama-qarshilik bilan yondashadi. U ayolning his-tuyg‘ulari, erkin tanlovi va muhabbatdagi o‘rnini inkor etuvchi bunday fikrlarga to‘liq qo‘shila olmaydi. Suhbat davomida uning ongida Saidiy obrazi gavdalanib, shaxsiy kechinmalari yanada chuqurlashadi. Bu holat uning ichki dunyosidagi ziddiyatlarni kuchaytiradi va qahramonning ruhiy beqarorligiga ishora qiladi.

Mazkur epizod Munisxon taqdirining fojeaviy yo‘nalishini ochib beruvchi muhim psixologik nuqta hisoblanadi. Keyingi voqealar esa uning ichki qarama-qarshiliklari va hayotiy bosimlar ostida asta-sekin sinib borishini, oxir-oqibat esa ayanchli yakun — o‘z joniga qasd qilishga olib kelishini ko‘rsatadi. Shu tariqa, asarda shaxsiy tuyg‘ular va davr mafkurasi o‘rtasidagi ziddiyat Munisxon obrazida chuqur fojea sifatida namoyon bo‘ladi. Bu masalalar, ayniqsa, “shaxsga sig‘inish” davrida, individning o‘z shaxsiy fikriga ega bo‘lishi va uni ifoda etishi qanchalik murakkab bo‘lganini ko‘rsatadi.

2. Loqaydlik va ruhiy tanazzul: Hayotning ichki mantig‘i shuki, odamlarga bo‘lgan loqaydlik butun hayotga ham loqayd qarashga o‘rgatadi. Bu esa bora-bora o‘z taqdiriga ham loqayd bo‘lishga, “kel, bir gap bo‘lar”, deb o‘zini aldashga olib boradi. Saidiy ehtiros bilan sevgan Munisxonga ham oxir-oqibat loqayd bo‘lib qoladi. Bu darajadagi loqaydlik romanning oxirida uni tirik murdaga aylantirib qo‘yadi. ...Saidiyning go‘zal ma‘shuqa Munisxon qolib, tasqara Soraxonga yo‘liqishi, makkor Murodxo‘ja domlaning shirin so‘zlariga uchib, unga ichkuyov bo‘lishi shu jirkanch muhitga o‘zini moslash uchun urinishi – ovutishi, bu xonadonda insonlik sha‘ni, nafsoniyatining oyoq osti etilishi, xasta opasi boshiga tushgan xo‘rliklar, bularning ustiga ishdagi, ijoddagi tanazzul – bular bilan tanishganda Saidiy holati iztiroblaridan o‘quvchi qalbi larzaga keladi. Samimiy muhabbat ila boshlangan asar, bora-bora keskin tus oladi. Saidiy ko‘plab do‘stlar va shoir-yozuvchilar davrasiga kiradi. O‘z xayolida Munisxondan kamchilik qidirib, Soraxonning nuqsonlaridan fazilat yasay boshlaydi. Saidiy Soraxondan ko‘p nuqsonlar topadi ammo hechkimdan topa olmagan bir fazilat ham topadi. Saidiy bir kuni ichib kelib uxlab qoladi, shunda Soraxon xonaga kirib uning oyoq-kiyimini yechib, ustiga ko‘rpa yopadi. Choyni bo‘lsa bosh qismi tomoniga qo‘yib chiqib ketadi.

Bu vaqtda Saidiy uyg‘oq edi va o‘ylanib qoldi: Bu - sovuq choy. O‘chib qolgan odamning oyoq kiyimini yechish, ustiga ko‘rpa yopishni harkim ham biladi, ammo o‘shanday paypaslaganda qo‘li yetadigan joyga sovuq choy qo‘yish harkimning ham ishi emas! Nahotki Soraxon shuni bilsa! Demak, tuppa-tuzuk! O‘sha kundan boshlab Saidiy Saroxonga boshqacha, birinchi martaba uning aft-boshiga tuzukroq qarashga qaror berdi.

Romandagi ushbu epizod asarning psixologik qatlamini ochib beruvchi muhim badiiy detaldir. Bu yerda muallif oddiygina maishiy holat orqali inson ruhiyatidagi keskin burilishni nihoyatda nozik tarzda tasvirlaydi. Mazkur epizodda Soraxon obrazi yangi qirradan ochiladi. U nafaqat mehribon, balki sezgir, nozik didli inson sifatida namoyon bo‘ladi.

Munisxon Saidiyga bo‘lgan munosabatini xolis, beg‘araz, garchi o‘zi uchun bir qadar erish tuyulsa ham, o‘rtoqlik munosabati deb bilar va hammaning shunday qarashini tilardi. Bir kuni Munisxon akasi bilan turmush masalasida tortishib qoladi va yolg‘iz qolgach, ich-ichidan mulohaza yurita boshlaydi.

Muxtorxon haqida ham qayta mulohaza yuritib, unda “o‘rtacha odam bo‘lish” ga xos belgilarni izlaydi va ayrim jihatlarni topadi. Biroq bu xulosalar ham uning ichki iztirobini yo‘qotmaydi — u yolg‘izlikda o‘zini ruhiy bosim ostidagi insondek, go‘yo mahbusdek his qiladi.

Bu holatlar Munisxon obrazining ichki dunyosidagi ziddiyat va fojeaviy ruhiy jarayonlarni chuqur ochib beradi. Bu paytda Saidiy ham Munisxonning fazilatlaridan nuqson yasar edi.

Ikkovining farqi shundaki, Munisxon o‘zini alday olmagan fazilatdan nuqson va nuqsondan fazilat yasashdan o‘jiz kelgan daqiqalarida yig‘lardi, Saidiy esa ichar edi. Saidiy besunaqay Soraxondan fazilat izlab, o‘zi uchun har xil sabablar to‘qib chiqarardi. “- *Muhabbat nima?*” – *deydi Saidiy bir kuni Jamol Karimiyga, bo‘shatgan ryumkasini stolga qattiq qoyib. - Hayvoniy xohish, lekin uning yalang‘och o‘zi emas, hisdan gullar yasab bezalgani. Bu gullar qurib tushsa, hayvoniy xohishning o‘zi qoladi. Shu sababli nikoh uchun muhabbat shart emas.*

Shuning uchun “Bu xotin xunuk, bunisi chiroyli”, deyishda ma‘no yo‘q.

3. Saidiy psixologiyasi: Saidiy - odamlarga qo‘shilib ketishi qiyin edi. Buni Ehsanning do‘stlari misolida ham ko‘rsak bo‘ladi. Saidiy Ehsanning tili bilan aytganda, o‘tgan-ketgandan so‘zlamaydigan, jahonni kezib ming kishining umri yetmaydigan sarguzasht orttirganida ham tez unutadigan insonlardan edi. Saidiy to‘q oilada oqbilak bo‘lib o‘sgan, jismoniy mehnatda qo‘pollashgan odamlarni “to‘ngak” deb yomon ko‘radi, nozik ta‘b aslzodalarga alohida moyillik sezadi. Ayni vaqtda, tabiat unga muhabbatga qodir qalb va iste‘dod bergan. Bu insoniy fazilatlar uni katta haqiqatlar va adolatli kurashlar yo‘liga olib chiqishi mumkin edi.

4. Davr mafkurasi. Romaning yaratilish konteksti, 1930-yillarning boshlaridagi tarixiy sharoit, xususan, “shaxsga sig‘inish” davrining adabiyotga va jamiyatga ta‘siri tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. “Sarob” romani shu murakkab davrda, 1930 yilda yozila boshlanib, 1934-yilda yakunlangan va 1937- yilda nashr etilgan. Roman o‘sha davrning “dohiychilik” g‘oyalarining adabiyot va jamiyatga ta‘sirini bilvosita aks ettirishi bilan ham e‘tiborga molik.

Asarda Kenja obrazi orqali Sovet mafkurasiga yaqin qarashlar ifodalanadi. Kenja obrazi-oddiy “propagandist” emas, balki davr mafkurasi ta‘sirida fikrlaydigan personaj sifatida berilgan.

Bu obraz orqali mafkuaviy qarama-qarshilik, xonliklar davri va yangi sovet tizimidagi yer islohati ochib beriladi. Kenjaning Saidiyga aytgan quyidagi gaplari orqali ham buni anglash mumkin: “*Mavzu tanlashda bu kun maydonda bo‘lgan hamma asarlarga ham ergashavermang.*

Bir yosh shoira o‘tmishdagi xonlarni sog‘inib she‘r yozibdi. Holbuki, xon-xoqonlar zamonasida unga o‘xshagan o‘nlab ayollar bitta erkakning cho‘risi edi. Nimasini sog‘inadi o‘sha hayotning? Kulgi! Men bilaman, bu ayol xon-xoqonlarni sog‘ingani yo‘q, ba‘zi bir katta shoirlarga ta‘sir qilib shunday she‘r yozgan... Xabaringiz bor, yaqinda O‘zbekiston Kommunistlar partiyasining plenumida yer islohoti masalasi muhokama qilindi. Yer islohoti kambag‘al dehqonlar, yersiz batraklar uchun shubhasiz misli ko‘rilmagan shodlik. Qani endi shu bizning bugungi mavzumiz bo‘lsa!” Bu jumlar orqali o‘tmishdagi xon-xoqonlar davrini romantizatsiya qilish keskin rad etilib, bunday yondashuv “kulgili” va asossiz deb baholanashini ko‘ramiz. Sovet davrida xonliklar va ularning hukmdorlariga nisbatan nafaqat tarixiy, balki adabiy munosabat ham qat‘iy mafkuraviy nazorat ostida bo‘lgan. O‘tmishni ideallashtirish keskin rad etilib, uning o‘rniga zamonaviy sotsialistik o‘zgarishlarni ulug‘lash targ‘ib qilingan. Natijada, tarixiy haqiqat ko‘pincha bir yoqlama talqin qilinib, xonliklar davri asosan ijtimoiy tengsizlik va zulm timsoli sifatida ko‘rsatilgan.

Romanda tilga olingan asosiy masalalardan yana biri bu yer islohotidir. Komunizmning asosiy asoschilaridan biri-Karl Marks xususiy mulk, ayniqsa yerga egalik, ijtimoiy adolatsizlikning asosiy manbai deb hisoblab, sinfsiz jamiyat g'oyasini ilgari surgan. Biroq amaliyotda bu siyosat murakkab ijtimoiy oqibatlarga ham olib keldi. Yerlarni qayta taqsimlash jarayonida ko'plab tajribali yer egalari tizimdan chiqarildi, ayrim hollarda majburiy choralar qo'llanildi. Keyinchalik kollektivlashtirish jarayoni bilan birga bu o'zgarishlar qishloq xo'jaligi tuzilmasini tubdan o'zgartirib yubordi. Buni Saidiyning mulohazalaridan ham anglasak bo'ladi. U Kenjani shoir sifatida ko'rmay, qobilyatsiz, mafkura ostida fikrlovchi, o'zidan keyin chiqqan yosh shoirlarni ustalik bilan adashtiruvchi shaxs sifatida ko'radi.

Uning maslahatlariga quloq solish-adashish va yer islohoti o'zbek qishloqlarini xarob qiladi deb hisoblaydi. Yer islohoti orqali Sovet mafkurasi ilgari surgan "ijtimoiy adolat" g'oyasi bir tomondan ijobiy o'zgarish sifatida ko'rsatilsa, ikkinchi tomondan inson ruhiyati va jamiyatdagi ziddiyatlar orqali uning murakkab oqibatlari ham seziladi.

XULOSA. Abdulla Qahhorning Sarob romanida inson ruhiyatining nozik va murakkab qatlamlari, shaxs va jamiyat o'rtasidagi keskin ziddiyat hamda davr mafkurasining inson ongiga o'tkazgan bosimi chuqur badiiy ifoda etiladi. Asarda Saidiy va Munisxon taqdiri orqali noto'g'ri tanlovlar, ma'naviy bo'shliq, loqaydlik va nosog'lom ijtimoiy muhit insonni asta-sekin tanazzul va fojeaga yetaklashi ta'sirchan tarzda ochib beriladi.

Yozuvchi shuni ko'rsatadiki, ichki erkinlikdan voz kechgan, o'z manfaatlari ortidan quvgan inson oxir-oqibat "sarob" ortidan quvib, hayotiy haqiqatni boy beradi. Shu jihatdan asar nafaqat o'z davrining mafkuraviy muammolarini, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan insoniy qadriyatlar, axloqiy tanlov va ruhiy inqiroz masalalarini yorituvchi chuqur falsafiy asar sifatida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qahhor, A. Sarob. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
2. Qahhor, A. Sarob. Toshkent: "Zukko kitobxon", 2021.
3. Qo'chqorova, M. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari. Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2011.
4. Qo'chqorova, M. A. Qahhor istiqloq adabiyotshunosligi ko'zguisida qiyosiy tahlili. 2024.
5. Aristotle. Politics. (Siyosat). Book I-II.
6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent: O'zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1977.